



## **Cultivation of Sweet Corn on Household Plots**

**E.B. Mambetnazarov (PhD)**

**N.A. Uzakbaeva**

Doctoral Researcher Karakalpakstan Research Institute of Agriculture Chimbay  
District, Republic of Karakalpakstan

### **Annotation**

The opportunity to harvest twice as much from homestead land has been created. Food security and family income have increased. The efficiency of water and land resource use has improved.

### **Tomorqa erlarida shirin makkajo‘xori yetishtirish**

**E.B.Mambetnazarov (PhD), N.A.Uzakbaeva** tayanch doktorant Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumani

**Аннотация:** Tomorqa yerlaridan ikki marta hosil olish imkoniyati yaratildi. Oziq-ovqat xavfsizligi va oilaviy daromad oshdi. Suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi yaxshilandi.

**Аннотация:** Появилась возможность собирать вдвое больший урожай с приусадебных участков. Повысилась продовольственная безопасность и семейный доход. Улучшилась эффективность использования водных и земельных ресурсов.

Shirin makkajo‘xori erta hosil berishi va yangi iste‘mol, muzlatilgan yoki konservlangan ko‘rinishda sotilishi mumkinligi sababli, boshqa ko‘pgina don va sabzavot ekinlariga nisbatan yuqori daromad keltiradi. Shirin makkajo‘xori navlari sohasidagi ko‘p tadqiqotlar o‘tkazilgan va kupgina yutuqlarga erishilgan, lekin hozirgi paytgacha maqsadli ravishda ya'ni tomorqa erlaridan bir mavsumda 2-3 marotiba hosil olishda Qoraqalpog‘iston tuproq iqlim ekstremal sharoitiga bardoshli yangi shirin makkajo‘xori navlarni yaratish zaruriyatini eng dolzarb vazifalar qatoriga qo‘yadi. Bu



muammoning nazariy asosi sifatida shirin makkajo‘xorining morfologik va asosiy qimmatli xo‘jalik belgilarining namoyon bo‘lishini, irsiylanishini, o‘zgaruvchanlik ko‘lamini genotiplar shakllanishi xususiyatlarini o‘rganish lozim.

Shirin makkajo‘xori agrotexnik ahamiyatga ham egadir. U qurg‘oqchilikga chidamli va chopiq talab o‘simlik bo‘lganligi uchun tuproqda begona o‘tlar kamayadi. **Xosildorlik natijalari zamonaviy navlarda 50–80 s/ga navlar samaradorligi esa ertapishar navlar (70–90 kunlik vegetatsiya davri) tez hosilga kirishi bilan farqlandi. Xonadon yerlarida sug‘orish va mineral o‘g‘itlar ta’siri suv va to‘g‘ri o‘g‘itlash (azot, fosfor, kaliy) hosildorlikni 30–40% oshirdi, shirin makkajo‘xori tuman bozorida yuqori talabga ega bo‘lganligi uchun har bir suta bahosi 5000-6000 so‘m buldi. Mineral o‘g‘itlar birgalikda qo‘llanganda hosildorlik 1,2–1,5 baravar oshganligi ma’lum bo‘ldi. Minikultivatorlar bilan qator oralariga ishlov berish va integral himoya vositalari qo‘llanganda zararkunanda va kasalliklardan yo‘qotishlar 20–30% ga kamaydi.**

Chimboy tumani “Baxitli” OFY xududida J. Usenovning xonadonda erta bahorda tuproq harorati 10-12<sup>o</sup>Sda 10 sotix yeriga shirinmakkajo‘xorining “Sherzod” navi 70 × 25–30 sm sxemasida 4500-5300 tup ekilib 87 kunda pishib yetildi, har bir tupdan 1-2 sutadan olinib, bir suta og‘irligi 175-248 gramm oraligida bo‘ldi. Natijada 956 kg suta olindi.

Kegeyli tumani “Juzimbog‘” OFY xududida A. Sultanmuratovning xonadonida erta bahorda tuproq harorati 11-12<sup>o</sup>Sda 10 sotixga yeriga shirinmakkajo‘xorining “Zamin” navi 70 × 25–30 sm sxemasida 4521-5339 tup ekilib 91 kunda pishib yetildi, har bir tupdan 1-2 sutadan olinib, bir suta og‘irligi 169-251 gramm oraligida bo‘ldi. Natijada 0,92–1,10 kg suta olindi.

Kegeyli tumani “Juzimbog‘” OFY xududida J. Kaypovning xonadonida erta bahorda tuproq harorati 11-12<sup>o</sup>Sda 10 sotixga yeriga shirinmakkajo‘xorining “Zamin”



navi  $70 \times 25-30$  sm sxemasida 4585-5345 tup ekilib 90 kunda pishib yetildi, har bir tupdan 1-2 sutadan olinib, bir suta og'irligi 195-227 gramm oraligida bo'ldi. Natijada 0,97-0,98 kg suta olindi.

Shimoliy Orol bo'yi hududi sharoitida shirin makkajo'xorining "Zamin", "Sherzod" va "Gold F1" navlarini yetishtirish hamda undan keyin ikkinchi ekin sifatida sabzi ekish agrotexnikasini shaxsiy tomorqa yerlarida joriy etish iqtisodiy va agrotexnik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Tomorqa yerlarida to'g'ri agrotexnik tadbirlarini qo'llash orqali barqaror va sifatli hosil olish mumkin.

Tomorqa sharoitida olib borilgan kuzatuvlar va o'rtacha agrotexnik asosida quyidagi amaliy natijalarga erishish mumkin: "Zamin" navi: 10 sotixdan o'rtacha **0,9-1,1 t** po'chat (sotiladigan holatda) olindi, "Sherzod" navi: 10 sotixdan o'rtacha **0,9-1,0 t** po'chat olindi, "Gold F1" gibridi: intensiv parvarishda 10 sotixdan **1,0-1,2 t** gacha po'chat olish mumki, o'simlik zichligi 10 sotixda **6-7 ming tup** bo'lib, har bir tupdan asosan 1 ta bozor po'chat shakllandi.

Ikkinchi ekin sifatida sabzi yetishtirishning ahamiyati shirin makkajo'xori erta hosilga kiradigan ekin bo'lgani sababli, undan keyin sabzi ekish tomorqa yerlaridan samarali foydalanish imkonini berdi. Sabzi qisqa vegetatsiya davriga ega bo'lib, kuzgi hosil olishga qulay. Tomorqa yerlarida tuproq tayyorlash makkajo'xori hosili yig'ishtirilgach, maydon sayoz haydaldi, tuproq yumshoq va mayin holga keltiriladi, sho'rlanishni kamaytirish uchun yengil yuvish sug'orishi o'tkazildi. Ekish muddati va usulari iyun oxiri -iyul boshlarida qator oralari 45-50 sm 2-3 sm chuqurlikka ikildi. Unib chiqish davrida tuproq namligini saqlash muhim. O'simliklar siyraklashtirilib, begona o'tlarga qarshi kurash olib borildi. Tomorqa yerlaridan ikki marta hosil olish imkoniyati yaratildi. Oziq-ovqat xavfsizligi va oilaviy daromad oshdi. Suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi yaxshilandi.

### **Foydalalingan adabiyotlar ro'yhati**



1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7-ноябрдаги «Қорақалпоғистон Республикасида чорвачилик тармоқларини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги 4512 сон қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18-январдаги " 2022-2026 ЙИЛЛАРГА МЎЛЖАЛЛАНГАН ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ" ПФ-60-сон 18 б.
3. Қорақалпоғистон Республикаси вазирлар кенгашининг 2017 йил 21 ноябрдаги 245-сон қарори.
4. Абдукаримов Д.Т. Донли экинлар селекцияси ва уруғчилиги. Дарслик. 2010. 227-бет.
5. Авлиёқулов. А. Э. Мамлакатимиз деҳқончилик тизими истиқболлари.- Тошкент, «NAVRO'Z», 2013. Б. 495
6. Агрофизикавий, агрокимёвий ва микробиологик анализларни аниқлаш услублари,-ЎзПТИ, 2000
7. Азизов К., Бобоев Ф., Элмуродов А. Сабзавот(ширин) маккажўхориси даромад ва озуқа манбаи, Agro ilm – O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi маҳсулоти сон 2019-йил 30-31 б
8. Азизов К., Еденбаев Д., Назаров Х., Кулиев Т. Янги яратилган маҳаллий истиқболли маккажўхори навларининг қимматли хўжалик белгилари ва ишлаб чиқариш натижалари, Agro ilm – O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi 2022-йил 2-сон Б. 19-20.